

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.T.Abbosova	
Ma'furaviy tahdidlarni bartaraf etishda milliy g'oyaning ro'li	98
Б.А.Абилова	
Суфийские ордена и их роль в историко-политических процессах средневековья	102
X.Q.Abdumutalov	
Yangi O'zbekistonda komil insonni shakllantrishda milliy g'oyaning o'rni.....	107
M.M.Gulamova Xoja	
Muhammad Porsoning irfoniy qarashlarida insonning ma'naviy kamoloti va ontologik mohiyati ..	110
R.Sh.Alisher	
Mirbobo Naqshbandiyni inson kamoloti qalbni sayqallash, unga ma'naviy ozuqa berish haqidagi mulohazalari	115
S.S.Hamroyev, D.Sh.Shuxratova	
Yangi O'zbekistonda oila institutini isloh qilishning ijtimoiy-huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi	119
F.S.Qosimov	
Falsafa nigohida inson kapitalining shakllanishi va taraqqiyotdagi roli.....	124
B.M.Madaminov	
Yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning nazariy-metodologik asoslari	129
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbikorlik faoliyatining rivojlanishida halollik va axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy roli	133
M.O.Oripova	
Jamiyatda inson begonalashuvi fenomenining mohiyati va falsafiy mazmuni	137
Д.Р.Вахабова	
Возникновение философских взглядов в персидско-таджикской литературе (Абу Абдулла Рудаки)	142
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyat: tushuncha va falsafiy tahlili.....	147

SIYOSAT

A.A.Ahrorqulov, A.To'xtasinov	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqish omillari	152
G.O.Sa'diyeva	
Markaziy Osiyodagi zamonaviy geosiyosiy tendensiyalar	156
R.A.To'ychiyeva	
Yangi davrda Hindiston tashqi siyosatidagi o'ziga xos ustuvor va farqli jihatlar	163
D.Mamadjonova	
Prokuratura tizimida inson huquqlarini himoya qilish: qonunchilik asoslari va amaliyot	172
X.Qodirov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni.....	176
P.I.Ovulov	
Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi	180

TARIX

B.B.Iminov	
O'zbekiston Respublikasida nodavlat ta'lim muassasalarining vujudga kelish tarixi	185
A.U.Hamroyev	
Amir Haydar – ijtimoiy adolat tarafdori bo'lgan hukmdor.....	190
A.U.Hamroyev	
Gulshanul muluk asarida mang'itlar boshqaruvi davrida jamiyat iqtisodiy hayotining yoritilishi	194
M.M.Azimova	
Farg'ona vodiysida qishloq-vrachlik punktlari faoliyatidagi o'zgarishlar tahlili.....	198



UO'K: 1:316.6

JAMIYATDA INSON BEGONALASHUVI FENOMENINING MOHIYATI VA FALSAFIY MAZMUNI**СУЩНОСТЬ И ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФЕНОМЕНА ОТЧУЖДЕНИЯ ЧЕЛОВЕКА В ОБЩЕСТВЕ****THE ESSENCE AND PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF THE PHENOMENON OF HUMAN ALIENATION IN SOCIETY****Oripova Moxidil Odilovna** 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada begonalashuv fenomenining tarixiy-falsafiy ildizlari, jamiyatda shaxs begonalashuvining namoyon bo'lish xususiyatlari, inson begonalashuviga qarshi kurashda intellektual qadriyatlarning o'рни, global taraqqiyot davrida inson begonalashuvidan foydalanayotgan kuchlar, milliy g'oyaning O'zbekistonda inson begonalashuvini oldini olishdagi strategik ahamiyati tahlil qilingan.

Аннотация

В статье анализируются исторические и философские основы феномена отчуждения, особенности проявления отчуждения личности в обществе, роль интеллектуальных ценностей в борьбе с отчуждением человека, силы, использующие отчуждение человека в эпоху глобального развития, стратегическое значение национальной идеи в предотвращении отчуждения человека в Узбекистане.

Abstract

The article analyzes the historical and philosophical roots of the phenomenon of alienation, the characteristics of the manifestation of individual alienation in society, the role of intellectual values in the struggle against human alienation, the forces exploiting human alienation in the era of global development, and the strategic importance of the national idea in preventing human alienation in Uzbekistan.

Kalit so'zlar: inson, jamiyat, begonalashuv, fenomen, zamonaviy jamiyat, inson borlig'i, inson va jamiyat munosabatlari, identiklik.

Ключевые слова: человек, общество, отчуждение, феномен, современное общество, человеческое существо, человеческие и общественные отношения, идентичность.

Key words: human, society, alienation, phenomenon, modern society, human existence, human and society relations, identity

KIRISH

XX asr insoniyat tarixida misli ko'rilmagan kashfiyot va ixtiro asri bo'ldi. Agar dastlab ixtiro va kashfiyotlarni amaliyotga joriy qilish uchun 50-100 yil sarflangan bo'lsa, axborotlashgan davrda 10-20 va hatto 2-3 yilda ulardan foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi. Mavjud bilimlar doirasi shu darajada kengaydiki, bu axborot oqimi "tezlashuvi" jarayonini paydo qildi. Mazkur jarayon "axborotlashgan jamiyat" iborasida o'z ifodasini topmoqda. Bu ijtimoiy turmushning barcha sohalarida keng imkoniyatlarni taqdim qilishi bilan birga ayni paytda, bugungi kun kishisini "axborot xujumi"dan himoyalashni taqozo etmoqda. Buguni davr yoshlaridan yuksak intellektual salohiyatni talab etmoqda. Zero, O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"[1.91]. Zamonaviy jamiyatimizning ijtimoiy soxalarining turli jabhalarida yuz berayotgan o'zgarishlar, islohotlar, yangilanishlar avvalo ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirishga yo'naltirilgan. Mazkur ijtimoiy voqeliklar, hodisalar ro'yobga chiqishining negizida, jumladan, yoshlarda ijtimoiy faollik xususiyatlarini shakllanishi muammosi ham yotadi. Ijtimoiy faollik yoshlarni nafaqat ijtimoiylashuvining muhim bo'g'ini, balki shaxsning mustahkam irodasini shakllantirish, o'z-o'zini anglash va baholash kabi shaxs kamolotining omillari bilan tafsiflanadi. Yoshlar kelajak egalari ekanliklarini, ularni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olgan holda bugungi kunda inson texnika

yutuqlaridan oqilona foydalanishining alohida madaniy qolipini yaratish lozim. Taraqqiyotga hizmat qiluvchi bu manbalardan oqilona foydalanishni barchaga singdirish kun talabi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Zamonaviy sharoitlarda jahon fani va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda"[2]. Fan-texnikaning yutuqlari insoniyat foydasiga, ezgu maqsadlarga xizmat qilishi ijobiy holat. Lekin, virtual olamdan ayrim kuchlarning g'arazli niyatlarini amalga oshirish uchun foydalanayotganligi ham haqiqatdir. Bunga qarshi har bir mamlakat o'z kelajagi haqida o'zi qayg'urib munosib kurash olib bormog'i bugungi kunning zaruratidir.

XX asrning 80 yillarida jadal sur'atlar bilan rivojlangan axborot texnologiyalari ijtimoiy hayotning barcha soharida keng ko'lamda qo'llanilishi, bir tomondan ijtimoiy hayot muammolarini yenillastirgan, odamlarning ish vaqtida bo'sh vaqt imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ularning ijtimoiy begonalashuvi omili bo'ldi. 1991 yilda Internet, 2001 yilda Aypet tizimining paydo bo'lishi jamiyatning to'la axborotlashishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida shaxsning o'z o'zida, o'zi yashayotgan jamiyatdan begonalashuviga asos bo'ldi. Shu nuqtai nazardan hozirgi kunda O'zbekiston xalqining ijtimoiy madaniy rivojlanishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Mustaqil O'zbekistonda huquqiy-demokratik davlat va odil fuqarolik jamiyati barpo etayotgan ekanmiz, begonalashishga yo'l quymay, faol fuqarolik pozitsiyasi va o'z mustaqil fikriga ega shaxslarni tarbiyalash, jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muhit barqarorligini ta'minlash jamiyatimiz barcha a'zolarining, ayniqsa, keng ziyolilar qatlamining burchidir. Zero, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarni, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi"[3.137].

Tobora axborotlashib borayotgan jamiyatimizdagi texnika-tehnologiya yutuqlarning insonlarning o'zaro va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatiga qay darajada ta'sir etayotganini tahlil qilish va chuqur falsafiy-ilmiy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Insonning begonalashuvi masalasi turli davr olimlari va faylasuflari ijodida alohida tahlil etilgan. Xorij olimlarining jamiyatning yangi turining rivojlanib borishiga bag'ishlangan dastlabki asarlari o'zlarining empirik jihatdan yetarli darajada asoslanmaganligi sababli taxminiy tabiatga ega bo'lgan va ko'p jihatdan publitsistik tabiatga ega bo'lgan. Faqatgina D.Bellning "Kelajak postindustrial jamiyati" (1973) asaridagina yetarli darajada statistik ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotchilarning keyingi avlodi o'z e'tiborini industrial jamiyatning nisbatan avvalroq ishlab chiqilgan nazariyasi uchun radikal ravishda yangi bo'lgan qoidalarining ilgari surilishi va asoslanishiga qaratdi. Ularga J.Bodriyyar, A.Turena va boshqalarning asarlarini kiritish mumkin. Xorij adabiyotida axborot jamiyati paradigmatlari D.Bellning "Besh bo'g'im", A.To'fflerning "Uchinchi to'lqin" nomlari ostida mashhur.

Axborot jamiyati paydo bo'lishining umumiy masalalari A.N.Kolmogorov, Y.Masudalarning asarlarida ko'rib chiqilgan.

Axborotlashgan jamiyat tushunchasi hali nisbatan "yosh bo'lganligi" bois mazkur ishning nisbatan yangi davr olimlari ijodida ko'proq tahlil qilingan. Xususan, N.Shermuxe'dova Texnika falsafasi darsligi[4], Inson falsafasi darsligi[5], M.I.Yoqubova "Jamiyat taraqqiyotida axborotlashuv va axborot texnologiyalarining ahamiyati"[6] nomli nomzodlik dissertatsiyasi, K.V.Armanovanning "Begonalashuv va zamonaviy yoshlar submadaniyatining ijtimoiy-falsafiy tahlili"[7] nomli tadqiqoti, V.L.Lyubovning "Globallashuv sharoitida begonalashuv rivojlanishi ijtimoiy fenomen sifatida"[8] nomli monografiyasi shular jumlasidan.. Begonalashuv muammosi esa o'zining birinchi konseptual rasmiylashtirilishi T.Gobbs, J.Lokk, J.J.Russo, I.V.Gyote, F.Shiller, A.Shopengauerning asarlarida, ayniqsa I.G.Fixte[9] va G.Gegelning falsafiy tizimlarida to'liq ko'rinishda keltirilgan. Gegeldan keyin begonalashuv muammosi L.Feyyerbax va M.Shtirnert omonidan ko'rib chiqilgan. V.YE.Goroziya va boshqalarning asarlarida alohida tahlil qilingan. O'zbekiston faylasuflari S.Shermuxe'dov, E.Yusupov, Sh.Qahhorova, G.Qobulniyozovalar insonning ijtimoiy hayotdagi o'rni va faolligi masalasi bo'yicha asarlarida chuqur tahlil qilingan[10].

Begonalashuv ruhiy holat bilan bog'liq jarayon bo'lganligi bois psixologik tadqiqotlar manbai bo'lib ham xizmat qilgan. Xususan, Z.Freyd, G.O.Xuxlayeva, K.A.Abulxanova-Slavskaya kabi psixologlar masalaning psixologik jihatini tahlil etganlar. O'zbek psixolog olimlarida E.G.G'oziyev, G'.Sog'inov, S.Axunjanovalar, G.Q.Tulyaganova va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi[11.77] deya ta'riflanayotgan bugungi globalashuv davrida ijtimoiy hayotda ko'plab yangicha masalalar va munosabatlar vujudga kelmoqdaki, bu jarayonlar yangi kashfiyot va ixtirolar bilan chambarchas bog'liq. XX va XXI asrlar chegarasida butun dunyoda yuz bergan olamshumul ijtimoiy o'zgarishlar Uyg'onish davrida vujudga kelgan sivilizatsiya tipidan insonning kundalik hayotidan eng yangi texnologiyalar, shu jumladan axborot texnologiyalari keng o'rin egallashi bilan bog'liq bo'lgan yangicha tipdagi sivilizatsiyaga o'tish bilan tavsiflanadi (bu yerda muhimi shundaki, axborot postindustrial jamiyat kodi bo'lib xizmat qiladi[12.4]. Mavjud qadriyatlar tizimlari ko'z o'ngimizda vayron bo'lmoqda, texnika taraqqiyotiga asoslangan yangi jamiyat shakllanmoqda. Bu inson dunyoqarashiga, uning irodasi va e'tiqodi kuchiga qarab o'z ta'sirini turlicha ko'rsatmoqda. Bu ta'sirning yuqori nuqtasi insonning begonalashuvi hisoblanadi. Xo'sh, begonalashish qanday yuz beradi, uning darajalari, ko'rinishlari mavjudmi? Tajribalar shuni ko'rsatadiki, begonalashish tuyg'usi bir necha yillarning mahsuli sifatida namoyon bo'ladi va uni keltirib chiqaruvchi omillar xilma-xildir. Inson hech qachon begonalashishga moyillik bilan tug'ilmaydi, balki ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Ana shu ijtimoiy muhit jamiyatning bugungi axborotlashuv jarayonida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Begonalashishning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy negizlari mavjud bo'lib, ularning har qaysisida erishilgan ustuvorlik yaqqol voqelik sifatida yuzaga kelishi ehtimolliligi ta'kidlangan. Begonalashish aslida psixologik tuyg'u, his tariqasida tabiatan tarkib topadi, e'tiqoddan puxtaligi, muhitga moslashishga o'quvchanligi, komunikabelligi, odamohunligi, bilimdonligi unga pozitsiya egallash, turmush yo'lini tanlash, mustaqil qarorlar qabul qilishga zarur shart-sharoit yaratadi. Alohida ta'kidlab o'tish joizki, tabiatan biosfera, neosfera va jamiyatdagi voqelikni bilish nisbiy xususiyatligi tufayli barcha narsalar fazo, vaqt, harakat mezonlari bo'yicha barqaror, bir tekis hukm surmaganday, begonalashish ham o'z navbatida avval tuyg'u sifatida, keyinchalik esa shaxs xususiyati (ayrim ma'noda illati) ga aylanib mikro muhitdan, birlamchi guruhdan nisbiy jihatdan uzoqlashishni bildiradi. Bizningcha, to'la ma'noda, uzil-kesil begonalashish insonga xos xususiyat emas, chunki turli hayot va faoliyat vaziyatlaridan pessimistik, optimistik, sentimentalistik (kuchli hissiyotlarga berilish, ko'ngli bo'shlikning yuqori nuqtasi[13]) tuyg'ular tazyiqiga uchragandagina ruhan ko'makka muxtojdir. Xuddi shu sababdan, eydetik obrazlar (lotincha "o'chmas iz"), armon, umid singari yuksak hislar batamom begonalashish hodisasi vujudga kelishiga ruhiy to'siqlar yaratib turadi, oqibatda qo'msash (ma'lum muddatdan so'ng), tanholik tuyg'ulari Vatan, qon-qarindoshlik, mehr-muhabbat to'g'risidagi umumbashariy qadriyatlar uni tafakkur olamiga qaytaradi. Hayot va faoliyat mahsullari sarhisobi, erishilgan yutuqlar, muvaffaqiyatsizliklar, status bilan rol o'rtasidagi uyg'unlik, xullas ongli davrdagi jamiki kechinmalar qaytib, ya'ni ramziy involyutsiya (lotincha: "orqaga qaytish") jarayonini yuzaga keltirishi mumkin. Xo'sh, begonalashish qanday yuz beradi, uning darajalari, ko'rinishlari mavjudmi? Kuzatishlarga qaraganda, begonalashish tuyg'usi bir necha yillarning mahsuli sifatida namoyon bo'ladi va uni keltirib chiqaruvchi omillar, turtkilar xilma-xildir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, inson hech qachon begonalashishga moyillik bilan tug'ilmaydi, ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Ana shu ijtimoiy muhit jamiyatning bugungi axborotlashuv jarayonida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Zamon talabiga mos ravishda mamlakatimizda internetlashtirish sur'atlari yangi pog'onalarga ko'tarildi. Bu Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, Innovatsion rivojlantirish nomli yangi vazirliklar faoliyatida yaqqol ko'rinmoqda. Bugun dunyoda internet imkoniyatlaridan ko'plab kuchlar o'z manfaatlari yo'lida foydalanmoqdaki, natijada zo'ravonlikka, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan ma'anaviy va ahloqiy xususiyatlarga asoslangan "ommaviy madaniyat" na'munalarini targ'ib qilish vositasida ma'naviy qadriyatlarning devalvatsiyasi, kishilar, ayniqsa yoshlar ma'naviy, ahloqiy va ijodiy imkoniyatlarining pasayib ketishi xavfi yuzaga kelmoqda, bu esa o'z navbatida yangi texnologiyalarning, jumladan, axborot texnologiyalarining joriy qilinishi va qo'llanilishi uchun mehnat manbalarini tayyorlashni ahamiyatli ravishda murakkablashtirmoqda. Bu jarayonlar erkinlikni yo'qotishdan qo'rqish, ortib borayotgan yakkalanib qolish, odamlarning begonalashishi va zamonaviy insonning global kommunikatsiyalarga bog'lanib qolishi natijasida vujudga kelayotgan yolg'izlik hissida faol ravishda namoyon bo'lmoqdaki, bunga ayniqsa internet tarmog'ining "virtual shaxs" va "internet-tobelik" kabi hodisalari ham ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur hodisalar oqibatida barcha ijtimoiy aloqalar ham shuningdek, virtual tabiatga ega bo'lmoqda. Bunday vaziyatga tushib borayotgan yoshlarning hayotdagi do'stlaridan ko'ra "virtual do'stlari" ko'payib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda ma'suliyat hissining va nazoratning yo'qligi "do'stlik" deb ataluvchi

azaliy qadriyatning ahamiyatini butunlay yo'qotmoqda.

Begonalashuv illatlarning boshlanishi... Chumolining o'z to'pidan ajralib, qayoqqa borishini bilmay turganini ko'rganmisiz? Bu holat insonning jamiyatdan, o'z oilasidan uzoqlashishi, yo'lini topolmay qolishiga o'xshaydi. Sheriklaridan ayrilgan chumoli uzoqqa borolmaganidek, insonning insoniylikdan yiroqlashishi ham o'z ortidan salbiy illatlarni boshlab keladi.

Dunyoda, hayotimizda, yon-atrofimizda sodir bo'layotgan uzoqlashishlar, avlodlar o'rtasidagi begonalashuv, insonlarning o'z mentaliteti, an'ana va urf-odatlaridan voz kechishi bugun xavfli tus olmoqda.

Inson qachon oilasidan, jamoadan uzoqlashadi? Buni o'zi xohlab qiladimi? Balki boshqa omillar bordir? Aynan qaysi omillar bu jarayonni keltirib chiqaradi?

Begonalashuv – bu ijtimoiy-falsafiy tushuncha bo'lib, kishining jamiyatdan, uni boshqarishdan, o'zi yaratgan munosabatlar va obektivlashtirilgan narsalardan chetlanganligini bildiruvchi ijtimoiy jarayon. Demak, begonalashuv negizida ijtimoiy muhitga tegishli omillar yotadi. Insonning o'zidan, mohiyatidan uzoqlashishi, o'zligini anglashga qodir bo'lmasligi yoxud buni tan olmasligining in'ikosidir. Bunda inson va uning jamiyatdagi o'rni, maqomi, mavqei, bajaradigan vazifasi o'rtasida uzilishlar sodir bo'ladi. Hatto ota-ona, farzand, yaqinlar haqida qayg'urish, o'ylash unga og'irlik qiladi. Bunga A.Kamyuning "Begona" asari qahramoni xvtti-harakatlari misol. Bu jarayonda yosh va jinsning ahamiyati yo'q.

Begonalashuv — inson faoliyati va uning natijalari mustaqil kuchga aylanib, inson ustidan hukmronlik va unga yovuzlik qiladigan holatga kirishishini ifodalaydigan ijtimoiy jarayon. Mehnat shart-sharoiti, vositalari va mahsuli ustidan ijtimoiy nazoratning yo'qligida, shaxsning hukmron ijtimoiy guruhlar tomonidan aldamchilik yo'li bilan boshqarish obyektiga aylantirilishida namoyon bo'ladi. Begonalashuv kishi ongida muayyan tarzda aks etadi (ijtimoiy meyorlarni yot va yovuz meyorlar sifatida idrok etish, yolg'izlik hissi, loqaydlik va b.). Begonalashuv konsepsiyasining kelib chiqishi va rivojlantirilishi T. Gobbs, J.J. Russo va Gegelga borib taqaladi[14].

Begonalashish - zamonaviy axborotlashgan jamiyatga xos bo'lgan, inson faoliyati va uning natijalarining ular ustidan hukmron bo'lgan va u bilan raqobatlashuvchi mustaqil kuchga aylanishi bilan ifodalanuvchi obyektiv ijtimoiy jarayondir.

Begonalashuv – ichki xayotning paydo bo'lishi oqibatida yuz beradigan hodisadir. Yolg'iz qolish insonga o'z fikrlari, hissiyotlari ustida o'ylash, o'z-o'zini tahlil qilish, refleksiya uchun yordam beradi. U barqaror ijtimoiy munosabatlar, o'z-o'zidan rozilik, o'z – o'zini hurmat qilish bilan birga kechishi mumkin. Biroq begonalashuv destruktiv xarakterga ham ega bo'lishi mumkin. O'ziga bo'lgan hurmatning pastligi nizoga, boshqalarga nisbatan ishonchsizlikka moyillik bilan ko'pincha korrelyatsiyalanadi. Insonning o'ziga bo'lgan hurmati qanchalik past bo'lsa, uning begonalashuvdan azoblanayotganligining ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Bu holat atrofdagilar bilan bo'lgan emotsional aloqalarning uzilib qolganligi yoki mavjud emasligi, bunday aloqalarni o'rnatma olmaslik, tengdoshlar jamoasi bilan bo'lgan munosabatlarning buzilganligi, birovga bog'lanib qolish va birovni yaxshi ko'rib qolishga qodir emaslikda namoyon bo'ladi. Begonalashuv hissi ayniqsa, yoshlar qatlami uchun juda og'ir va ayni vaqtda jamiyat uchun xatarli. Muloqotga kirishishni bilmaslik, aloqa o'rnatishdan, tushunilmay va qabul qilinmay qolishdan qo'rqish natijasida yoshlar o'zini keraksizdek, tashlab ketilgandek his etadi. Chunki, bu yosh davridagi yetakchi ehtiyojlardan biri muloqotda bo'lish, muhabbat, do'stlik, orqali yaqinlik qidirish – dilkash suhbatdagi, barcha ichki hissiyotlarni aytib berishi mumkin sherik qidirish e'tiyojidir. Yoshlar orasidagi suitsidal harakatlar ma'lum ma'noda begonalashuv hissinin yenga olmaslik, ilojsizlik oqibatida yangrayotgan yordamga bo'lgan "iltijodir".

Mutaxassislarning aniqlashicha, 25 foizi kishilar istalgan daqiqada begonalashuvni his qilishar ekan. Tadqiqotlarda begonalashuvning psixologik va somatik kasalliklar bilan bog'liqligi allaqachon isbotlangan. Axborot kommunikatsiya vositalari jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bir davrda insonlar o'rtasidagi muloqotga xos kamchiliklarni o'rganish muammosining dolzarbligi aslo kamaygani yo'q. Elektron pochta va uyali telefonlar bu muammoni qisman bartaraf etgan bo'lsa ham ayrim kishilardagi begonalashuv hissi hamon saqlanib qolmoqda.

Begonalashuv sof subyektiv his bo'lib inson uni qanday kechirayotganini uning o'zigina yaxshiroq biladi, boshqa kishi bunday imkoniyatga ega emas. Biroq ular begonalashuvning xavotirlanish, qalbdagi bo'shliqni his qilishi kabi belgilari bilan shaxslararo munosabatlar sohasidagi yetishmovchiliklar o'rtasida bog'liqlik mavjudligini har doim ham anglamasligi mumkin. Ba'zan inson muayyan salbiy kechinmalarni xis qilsa ham muloqotdagi kamchiliklarni anglamasligi, unga yetarlicha e'tibor berolmasligi mumkin.

XULOSA

Jamiyatda inson begonalashuvi fenomeni falsafiy va ijtimoiy jihatdan insonning o'zligini anglash va jamiyat bilan uyg'unlashish jarayonidagi murakkab ziddiyat sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu fenomenning ontologik, epistemologik va sotsiologik tahlili uning ildizlari va oqibatlarini chuqur anglashga yordam beradi. Zamonaviy ijtimoiy va madaniy kontekstda begonalashuvni bartaraf etish uchun falsafiy asoslangan, ijtimoiy adolatga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. "Баркамол авлод орзуси" Тошкент.: "Шарқ" нашриёти, 1999 йил. 91-бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигини ташкил этиш тўғрисида"ги Фармони. 29 ноябр 2017 йил. Lex.uz
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XX1 аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б.137.
4. Шермухамедова Н.А. Техника фалсафаси. Тошкент, Ношир. 2016. 467.б.
5. Шермухамедова Н.А. Инсон фалсафаси. Дарслик. -Т., 2017.
6. М.И. "Жамият тараққиётида ахборотлашув ва ахборот технологияларининг аҳамияти". Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент – 2007.
7. Арманова К.В. Отчуждение и современное молодёжные субкультуры социально-философский анализ). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. Кемерово 2007.
8. Любовь В.Л. Эволюция отчуждения как социального феномена в условиях глобализации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук Санкт-Петербург - 2009
9. Фихте И.Г. Ясное, как солнце, сообщение широкой публике о подлинной сущности новейшей философии. Попытка принудить читателей к пониманию. — Ленанд, 2016. — 112 с. — (Из наследия мировой философской мысли. История философии). — ISBN 978-5-9710-3281-6.
10. Юсупов Э. Фалсафа.-Т.: Шарқ, 1998; Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси.-Т., 2005.
11. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. Тошкент, Маънавият – 2008, 77-бет
12. Шермухамедова Н.А. Инсон фалсафаси. Тошкент-2017, 4-бет
13. Изоҳли луғат. Тошкент, Шарқ, 2004. 2 67-бет
14. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Тошкент, Фан, 2001.